



**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti**



FAN:

**“MASHINALARDAN
FOYDALANISH ASOSLARI”**

MAVZU

1

**«Kirish. Qishloq xo’jaligida
mashinalardan foydalanish
samaradorligini oshirishning
ahamiyati»**



Berdimuratov Paraxat Tadjimuratovich



**Muhandislik tizimlarni
boshqarish kafedrasи dotsenti**



1-mavzu: Kirish. Qishloq xo‘jaligida mashinalardan foydalanish samaradorligini oshirishning ahamiyati

Reja:

- 1. Kirish. Qishloq xo‘jaligida mashinalardan foydalanish samaradorligini oshirishning ahamiyati**
- 2. Ishlab chiqarishni mexanizasiyalashtirishning rivojlantirish istiqbollari;**
- 3. Fanning asosiy maqsadi va vazifalari, adabiyotlar.**

Mavzu bo‘yicha bilim saviyasini baholash

Tushunchalar

*Eksintensiv usul,
intensiv usul, mehnat
sarfi,
mexanizasiyalash
darajasi, texnika
xavfsizligi.*

Nazorat savollari

1. Mamlakatimizda qanday **dehqonchilik usuli** qo‘llaniladi?
2. Mahsulot yetishtirishning **intensiv** va **eksintensiv** usullarini mohiyatini ayting?
3. Mexanizasiyalashtirishning asosiy maqsadi nimadan iborat?

Bilaman (dars boshida yoziladi)	Bilishni xohlayman (dars boshida yoziladi)	Bilib oldim (dars oxirida yoziladi)

1.1 - Kirish. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishning halq farovonligini oshirishdagi o‘rni;

Bugungi kunda dunyo bo‘yicha 886,9 mln. hektar maydonlarda tuproqqa ishlov beriladi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiriladi. Uning 43,8 foiz qismida yangi rusurstejamkor, minimal va nol texnologiyalari hamda ularni amalga oshiradigan texnika vositalari joriy etilgan. Ushbu zamonaviy texnologiyalar **118 mln. hektar** maydonlarda tuproqning unumdorligini saqlash bilan bir vaqtda yetishtirilayotgan mahsulot tannarxonini o‘rtacha **25 foizga kamaytirish imkonini beradi.**

21-asrning eng katta muammosi – oziq-ovkat xavfsizligi

Muammoning asosiy sabablari:

1) Jahonda 1970 yili 3,5 mld. aholi yashagan bo‘lsa, hozirda bu ko‘rsatgich 7,5 mld.dan oshib ketdi. Bu ko‘rsatgich 2050 yilga borib 10 mld. ga yetishi kutilmoqda. O‘zbekistanda 1970 yillarda 16 mln aholi bo‘lgan bo‘lsa, hozir 32 mln.dan oshdi, 2050 yilga 50 mln. bo‘lishi kutilmoqda.

2) 1950 yilda tabiiy unumdor yerlar 100% ni va oziq ovqatga bo‘lgan talab 80% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2060 yilga borib tuproq unumdorligi pasayib, unumdor tuproqlar 25% ni tashkil etishi, oziq-ovqatga talab esa 160% bo‘lishi kutilmoqda.

Nima uchun shunday bo‘lib qoldi?

Yerni har yili qayta – qayta haydalishi, tuproqni zichlanishi, bakteriyalarni ko‘plab nobud bo‘lishi, tuproq zroziyasi (har yili yer shari bo‘yicha mavjud unumdor tuproqlarning 1% shamol va suv eroziyasiga uchramoqda), tuproqni qo‘srim-cha organik va mineral o‘g‘itlar bilan bo‘yitilmaganligi, qisqasi “erni terisi shilinib olinayotganligi” hisoblanadi.

Bu holat barcha ekinlar hosildorligini pasayishiga olib kelmoqda.

O‘zbekistonda bu muammoni yechishda qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

- fuqoralarga 600 ming gektardan ortiq tomorqalar berildi, 1200 ming gektar paxta maydonini g‘allaga almashtirildi;
- - paxta maydonini yildan-yilga kamaytirish va meva-sabzavotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirilishiga e’tibor qaratildi;
- - chet elga ko‘plab mahsulotlarni eksport qilish yo‘lga qo‘yildi;
- - qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini to‘liq intensiv usulga o‘tkazishga alohida e’tibor qaratildi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini mexanizasiyalashtirishning ahamiyati

Qishloq xo‘jaligi jarayonlarida mexanizasiyalashning joriy etilishi dehqonchilik tizimining har tomonlama rivojlanishiga asos bo‘ladi. Fermerlar uchun eng katta muammolar ekinlarni mavsumiy ekish, hosilni o‘rib-yig‘ib olish va boshqa jarayonlarini o‘z vaqtida bajarilmagan hollarida yuz beradi.

Ayniqsa, shuni esda tutish kerakki,
“Agar qishloq xo‘jaligida qaysidir jarayonni bajarishga kechikish, bu barcha jarayonlarni bajarishga kechikish demakdir”

(Kato, Miloddan avvalgi 2-asr).

Qishloq xo‘jaligini mamlakatda tutgan o‘rni

Ma'lumki, dunyo bo‘yicha **20-asrning boshlarida qishloq xo‘jaligida 38%** ishchi kuchi band bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda **atigi 2%** ni tashkil etadi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining mamlakat milliy iqtisodiyotidagi o‘rni juda muhim bo‘lib, mamlakat aholisining **63 foizi** qishloqda yashaydi.

Mehnatga yaroqli aholi bandligining **35 foizi** qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri keladi.

Halq farovonligini oshirish

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini
ko‘paytirish**

Intensiv usuli

Eksintensiv usul

**Qishloq xo‘jaligi ekinlarining
hosildorligini oshirish**

**Ekinlar ekiladigan maydonlarni
ko‘paytirish**

Kimyoviy usul
(o‘g‘itlarni qo‘llash,
o‘simliklarni himoya
qilish va b.)

**Biologik usul (yangi
nav, texnologiya va
bioo‘g‘itlar yaratish
va boshqalar)**

**Qishloq
xo‘jaligini-
mexanizasilash**

**Sug‘orish
ishlarini
takomillashtirish**

**Har bir ishni o‘z vaqtida
bajarish**

**Texnikalardan samarali
foydalanish**

**Texnikalarni
foydalanish
ko‘rsatgicharini
yaxshilash**

**Ish unumini
oshirish**

**Bajariladigan
ishlarni to‘g‘ri
tashkil etish**

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda mexanizasiyalash darjasи

**Qishloq xo‘jaligi ekinlarini
yetishtirishda bajariladigan ishlarni
mexanizasiyalash darjasи
paxtachilikda 70-75%, g‘allachilikda
85-90%, yem-xashak tayyorlashda
80-85%, sabzavot-polizchilikda
70-75%, bog‘ va uzumchilikda esa
50-55% tashkil etadi.**

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 maydagi PQ-1758-sonli qaroriga ko‘ra Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini rivojlantirish va texnikalardan samarali foydalanishdagi istiqbolli yo‘nalishlari

- mashina-traktor parklarini sifatli qishloq xo‘jaligi mashinalari bilan qayta jihozlash;
- quvvati, ish unumi, yoqilg‘i sarfi va boshqa ko‘rsatgichlari zamonaviy standartlarga mos keladigan yangi turdagi qishloq xo‘jaligi texnikalarini ishlab chiqarishni o‘zlashtirish;
- qishloq xo‘jaligi texnikalarini ishlab chiqarish va yetkazib berish tizimini takomillashtirish;
- servis xizmati tizimining sifatini oshirish va kengaytirish;
- fermer xo‘jaliklari, mashina-traktor parklariga etuk mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini doimo oshirib borishdan iborat.

Prezidentimizning 2017 yil 24 maydagi “Qishloq va suv xo‘jaligi sohalari uchun muxandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3003-sonli qarori

- **Ushbu qarorning asosiy vazifasi** fermer xo‘jaliklari, mashina-traktor parklari va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi korxonalariga yetuk mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini doimo oshirib borishdan iborat.
- **Qo‘yilgan vazifalarni belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi kelajakda mamlakatimiz aholisini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi.**

1.3. Fanning asosiy maqsadi va vazifalari

- **Maqsadi:** qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining bo‘lajak mutaxassislariga tabiiy ishlab chiqarish sharoitlariga mos keladigan qishloq xo‘jalik maxsulotlaridan yuqori xosil olish maqsadida mashina-traktor agregatlari (MTA), texnologik komplekslari, mashina-traktor parklari tarkibini asoslash va ulardan samarali foydalanish, texnikalarga texnik servisni tashkil etishni nazariy asoslari bilan qurollantirishdan iborat.
- **Vazifasi:** MTA larini yuqori ish unum bilan ishlatish, qishloq xo‘jaligidagi mexanizasiyalashgan jarayonlarni yuqori saviyada o‘tkazishni tashkil etish, MTA lariga texnik servisni tashkil etish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilishdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

ASOSIY

- 1. Korsun A.I, Farmonov E.T. “Mashina - traktor parkidan foydalanish”. T., ToshDAU, 2011. – 148 b (o‘quv qo‘llanma)**
- 2. Hunt D. “Farm Power and Machinery Management”, USA, 2016.-360 b. (darslik).**
- 3. Krombhols/Bertram/Wandel. “Land-technik”. Germany, 2008.**

QO‘SHIMCHA

- 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 12 maydagi “2012-2016 yillarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini modernizasiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-1758-sonli qarori. T.,2012.**
- 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi “Qishloq va suv xo‘jaligi sohalari uchun muxandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3003-sonli qarori. T., 2017.**
- 3. M. Toshboltaev. “Mashina-traktor agregatlari ish unumini oshirishning nazariy va amaliy prinsiplari” (Monografiya). – T.: “SPECTRUM MEDIA GROUP”, 2015, 97 bet.**
- 4. Iofinov S.A., Lishko G.P. “Ekspluatasiya mashinno-traktornogo parka” M. “Kolos”, 1984. – 351 s. (uchebnik)**

Diqqat!
Yozib oling va eslab
qoling!

**Har qanday soha ishlarini
mexanizasiyalashdan asosiy maqsad -
mehnat umumini keskin oshirib,
bajariladigan ish yoki olinadigan
mahsulotning tannarhini
pasaytirishdan iborat
bo‘lishi kerak**



**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti**



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!



Berdimuratov
Paraxat



Muhandislik tizimlarni
boshqarish kafedrasи
dotsenti



+ 998 (71) 237 0586



b_parakhat@mail.ru



+ 998 (97) 157-69-88